

JADID ADABIYOTI. MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOT YO‘LI

Saidmurodova Ruxshona Odil qizi

CHDPU O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: dots.A.U.Mo‘ydinova

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati namoyondalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayot yo‘li, maktab, madrasalar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, totalitar hukumat, rus-tuzem, jaholat.

Ma’lumki, XIX asr oxirida Turkiston o‘lkasi Rus totalitar hukumatiga butunlay qaram bo‘ldi. Turkiston xalqiga Chor Rossiyasi tomonidan ko‘plab zulmlar qilindi, ko‘pdan ko‘p begunoh, aybsiz insonlar oddiy sabablarga ko‘ra ham o‘ldirildi. Qizlar nomusi bulg‘andi, aholi soliq to‘lash uchun jonini jabborga qo‘yib ishlashga majbur etildi. Soliqlar shu darajada ko‘p ediki, bolalar o‘qishga, maktab-madrasalar uchun ta’lim olish uchun borishga mablag‘ naqadar vaqt topa olmasdi. Aholi jaholat, ilmsizlik jari tomon ketayotgan edi. Shunday davrda rus hukumati o‘z tilini mustamlaka xalqqa singdirish, o‘zbek tilini yo‘q qilish uchun Turkistonda ham rus-tuzem maktablarini ochdi. Mana shunday qaltis bir paytda rus-tuzem, sovet hukumatiga qarshi Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakati yuzaga keldi. Jadidlarimiz Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va boshqalar, Turkiston xalqini jaholatdan qutqarish, bolalar uchun bepul maktablar ochish, ularni ilm-ma’rifatli qilib

tarbiyalash, ularning qalbiga vatan tuygʻusini singdirishdek ulkan maqsadni oldilariga qoʻydilar.

Shunday jadid namoyondalaridan biri boʻlgan Mahmudxoʻja Behbudiyning hayot yoʻli haqida fikr yuritsak. Mahmudxoʻja Behbudi Turkiston jadidchilik harakati boniysidir. Behbudi hayoti va ijodiy faoliyati haqida XX asrning 20-yillarida mahalliy matbuot gazetalarida Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqolalar eʼlon qilingan. Mustaqillikka erishganimizdan soʻng jadidchilar faoliyatini oʻrganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudi hayoti ham qayta kashf etila boshlandi. Behbudi tarjimai holini yoritishda Hoji Muinning 1922-1923-yillarda oʻzi muharrirlik qilgan “Mehnatkashlar tovushi”(1922), “Zarafshon”(1923) gazetalarida chop etgan maqolalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mahmudxoʻja Behbudi 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlogʻida diniy olim oilasida tavvallud topgan. Behbudiyning otasi Behbudxoʻja turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyzxoʻja urganchlik hisoblanadi. Behbudi 6-7 yoshlarida togʻasi Muhammad Siddiq huzurida savod chiqaradi, otasidan Qurʼondan saboq olib qisqa muddatda qori boʻladi, 15 yoshga kirganda yana bir togʻasi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada bilim oladi. Behbudiyning 4 oʻgʻil 1 qiz farzandi boʻlgan. Sirojiddin Ahmedov bergan maʼlumotlarga koʻra Behbudi avval Samarqand, keyin Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan. 18 yoshida madrasa taʼlimini tugatib Samarqanddagi Chashmaob volostida qozilik qilgan togʻasi Muhammad Siddiq qoʻl ostida mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi. 1916-yilgacha muftiylik lavozimida ishlagan. 1899-1900-yillarda buxorolik doʻsti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullogʻa Kavkaz yoʻli ila Istanbul va Misr, al-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydin ziyoda choʻzilib edi” deb yozadi Behbudi safari haqida.

Behbudiy safarlari davomida boshqa yurt, millat siyosati, maktablari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu safarlar Behbudiyning Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, "jaholat uyi"ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini o'zgartirib yubordi. U ham jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab harakatiga kirishdi. Uning tashabbusi bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar ochildi. O'zi esa bu maktablar uchun bir nechta darsliklar yaratdi: "Risolayi asbobi savod"(1904), "Risolayi jug'rofiyayi umironiy"(1905), "Risolayi jug'rofiyayi Rusiy"(1905), "Kitobatul aftol"(1908), "Amaliyoti islom"(1908), "Tarixi islom"(1909) kabilardir.

Faqat maktab orqali xalqni savodli, ilm-ma'rifatli qilib bo'lmasligini bilgan Behbudiy birinchi bo'lib adsbiyotga teatr, drama janrini olib kirdi. 1911-yida o'zining "Padarkush" pyesasini yozdi. Bu pyesa ilk bor 1914-yilda Samarqandda sahnalashtirildi. Ushbu pyesa orqali xalqning jaholatga cho'mayotgan qalbi biroz ochildi. Pyesada ilmsizlik nimalarga olib kelishi yaqqol o'z ifodasini topgan edi.

"Behbudiya" kutubxonasi. Milliy madaniyatimiz tarixiga nazar tashlagan kishi barcha ma'rifatparvar podsholar saroyida kutubxonalar bo'lgani va shu kutubxonalarda o'zbek xalqining tarixi, dini va madaniyatiga oid noyob kitoblar saqlanganini yaxshi biladi. Biroq o'sha davrlarda bu kutubxonalardan undagi nodir asarlardan, qo'lyozma va bitiklardan faqat saroy ahli va saroyga yaqin kishilargina foydalana olar edi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan milliy uyg'onish harakati namoyondalari esa o'z oldilariga ayrim kishilarni emas, balki xalqni ma'rifatlashtirish maqsadini qo'yganligi sababli, faqat yangi maktablar ochibgina qolmay, keng xalq ommasi uchun kutubxonalar ochishga ham kirishdilar. O'tgan asrning 10-yillarida Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi jadidlar tashabbusi bilan "Turon" kutubxonasi tashkil topdi. Bundan ilgariroq esa Samarqandda "Qiroatxonayi Behbudiya" o'z faoliyatini boshlagan edi. "Turkiston viloyatining gazetisi"da 1908-yil 22-iyun sonida Behbudiyning "Об открытии

мусульманской библиотеки читальни - муталаахона” sarlavhali xabar maqolasi mavjud. Bundan ma’lum bo’lishicha, Behbudiy Samarqandda kutubxona ochish maqsadida “o’n ikki mukarram kishilar”- maslakdoshlari bilan birga 27 “bob”dan iborat dastur va nizom tuzib, Samarqand shahrining harbiy gubernatoriga yuborgan ekan. Ushbu nizom tasdiqlangach, kutubxonaning moddiy jihatlarini mustahkamlash ishlari boshlangan. Avvalo kutubxonani tashkil etish uchun maxsus jamiyat tuziladi. Jamiyat a’zolarining Behbudiy boschiligidagi birinchi yig’ilishida kutubxona xizmatchilari tarkibi belgilab olinadi. Behbudiy jamiyat raisi, Hojiqul Muhamedov rais o’rinbosari, Qo’qonboy Abduholiq o’g’li tarjimon, muallim Xidirbek Abdusaid o’g’li risning maishiy ishlar bo’yicha o’rinbosari, savdogar mulla Abdusalom Abdulmo’min o’g’li xazinachi, muallim Abduqodir Shakuriy va Hoji Said Ahmad Xo’ja Xabar o’g’li kutubxonaning doimiy a’zolari etib saylandilar. Shunday qilib kutubxona rasman 1908-yil 11-sentabrda ochilgan. Keyinchalik “Behbudiya” kutubxonasi nomi bilan mashhur bo’lgan. O’sha davrlarda Vadud Mahmud Abduqodir Shakuriyga bag’ishlagan maqolasida "Behbudiy boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo’lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi. O’sha vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o’z cho’ngagidan to’lar edi" deb yozgan. Afsuski, "Behbudiya" kutubxonasining 1917-yildagi inqilobiy voqealardan keyingi taqdiri haqida matbuotda biror maqola yoki xotira e’lon qilinmagan.

Bundan tashqari Behbudiy publitsistika taraqqiyotini ham yo’lga qo’ydi. Hukumat ruxsati bilan 1913-yil 20-aprelda “Samarqand” gazetasini, shu yilning avgust oyida “Oyna” jurnalini chiqara boshladi. Turkiston xalqi, bolalari uchun qo’lidan kelgan barcha ishlarni qildi. Yaxshi insonlar erta vafot etadi deganlaridek, millatparvar, dramaturg, nosir va puplistik professor Mahmudxo’ja Behbudiy 1919-yil 25-martda Shahrisabzda qo’lga olinib sirli tarzda Qarshi shahrida qatl ettirilgan. Shu tarzda totalitar hukumat Turkiston ilm ustunlaridan birini sirli tarzda yo’q qilib, uning nomini niqob qilib olishdi. Uning qatli haqidagi xabar o’sha paytlardagi

poytaxt bo'lgan Samarqandga rosa bir yildan keyin yetib boradi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston xalqi motam tutadi. O'nlab marsiyalar yoziladi. Oybekning quyidagi hayyomnoma ruhdagi ruboiysi go'yoki Behbudiya atalgandek:

“Donolar o‘tdilar - safari uzoq,
Quyoshday botdilar - manzili tuproq”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.“Jadidlar”-Zayniddin Abdurashidov.-Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi,2022.
- 2.“Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”- Begali Qosimov.-Toshkent “Ma’naviyat” 2004.
- 3.“Mahmudxo‘ja Behbudi”- Naim Karimov.- Toshkent 2010.